

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

SHE'RIY MATNLARDA SOF SO'ROQ HAMDA RITORIK SO'ROQ

GAPLARNING EKSPRESSIV VAZIFASI

(BEHZOD FAZLIDDIN SHE'RLARI MISOLIDA)

Hakimjonova Dilrabo Nazirjon qizi

ToshDO'TAU O'zbek filologiyasi fakulteti, 3-kurs

xakimovadilrabo420@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada she'riy matnlarda sof so'roq hamda ritorik so'roq gaplarning qo'llanishi (Behzod Fazliddin she'rlari misolida), badiiy asar tilining ekspressiv vazifasi, lingvopoetik xususiyatlari xususida ayrim mulohazalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, ekspressiv vazifa, ritorik savol, ritorik murojaat, sof so'roq, ottenka, sema, tahlil.

Abstract

In this article, the use of pure interrogative and rhetorical interrogative sentences in poetic texts (as an example of Behzod Fazliddin's poems), the expressive function of the language of an artistic work, and the linguopoetic features are given.

Key words: linguopoetics, expressive task, rhetorical question, rhetorical appeal, pure question, ottenka, sema, analysis.

Kirish

So'zlovchining o'ziga ma'lum bo'lmagan biror voqeani o'zgidan bilib olish istagi, zaruriyatini ifodalovchi gaplar so'roq gaplar hisoblanadi. So'roq gaplardagi mazmun darak gaplarga qarama-qarshidir. So'roq gaplar alohida innotatsiyaga ega bo'ladi. (Sayfullayeva, 2009, 382-bet)

Fayzullayev so'roq gaplarni tuzilish, ifodalanish vositalariga ko'ra ikki guruhga ajratadi:

1. Yuklamalar yordamida tashkil topgan so'roq gaplar.
2. So'roq so'zlar yordamida tashkil topgan so'roq gaplar.

So'roq xarakteriga ko'ra uch turga bo'ladi:

1. Sof so'roq gaplar.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

2. Ritorik so‘roq gaplar.

3. So‘roq-buyruq gaplar.

Sayfullayeva so‘roq gapda so‘roq ma‘nosiga boshqa ma‘nolar (so‘roqning o‘zi, so‘roq-hayrat, so‘roq-taajjub, so‘roq-mamnunlik, so‘roq-gumon, so‘roq-darak, so‘roq-buyruq) ham qorishgan holda berilishini ta‘kidlab, so‘roq gapni kutilayotgan javobga munosabatiga ko‘ra uch turga bo‘lgan:

1. Sof so‘roq gaplar.

2. Ritorik so‘roq gaplar.

3. So‘roq-buyruq gaplar.

Nizomiddin Mahmudov so‘roq gaplarning mazmuniy paradigmasiga diqqat qaratib, so‘roq gaplar umumlashtiruvchi so‘roq ma‘nosi bilan bir butunlikni hosil qilsa-da, lekin bu so‘roq ma‘nosi real holda turli variantlar – semalar orqali namoyon bo‘lishini, so‘roq arxisemasi ichidagi mazkur semalar munosabat so‘roq gaplarning mazmuniy paradigmatic munosabatini hosil qilishini, mazmuniy paradigma ichida birinchi, sema so‘roq gap uchun markaziy, qolgan semalar esa chegara semalar sanalishiga urg‘u beradi. So‘roq gaplarning shakli va mazmuni o‘rtasidagi munosabatga ko‘ra ikki guruhga bo‘ladi:

1. So‘roq-darak gaplar.

2. So‘roq-buyruq gaplar.

So‘roq gaplarning mazmuniy paradigmasi, propositiv ma‘no ustida konnotativ ma‘noning bor-yo‘qligiga diqqat qaratadi.

Tilshunoslikning lingvopoetika sohasi davrning dolzarb ilmiy-nazariy masalalari, muammolari, tadqiqiy vazifalari bilan xarakterlanadi. Xususan, adabiy ijodlar, yetuk badiiyat namunalarini lingvopoetik xususiyatlar nuqtayi nazaridan kuzatib, o‘rganib borish, bu yo‘nalishdagi tahlil, talqin, baholashni izchil yo‘lga qo‘yish bugungi o‘zbek tilshunosligining muhim vazifalaridan biridir. (Eshmirzayeva, 2022, 1-bet) O‘zbek tilshunosligida badiiy asar tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ishlarda ikki yo‘nalish yetakchilik qiladi:

1. Lingvistik yo‘nalish.

2. Lingvopoetik yo‘nalish.

Ishimiz badiiy asar tilini lingvopoetik yo‘nalishda o‘rganish bo‘lganligi uchun, birinchi navbatda, mazkur yo‘nalish tilning qay vazifasini tadqiq etishini aniqlab olish zarur. Zamonaviy adabiyotlarda tilning quyidagi vazifalari qayd etiladi:

1. Kommunikativ vazifa.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

2. Ekspressiv vazifa.
3. Konstruktiv vazifa.
4. Akkumulyator vazifa.

Badiiy asar tili tadqiq etilarkan, unda tilning ekspressiv vazifasi birlamchi ahamiyatga ega. Tilning ekspressiv vositalariga nutqning stilistik shakllari yoki shunchaki nutq figuralari kiradi: anafora, antitez, birlashmaslik, gradatsiya, inversiya, paralellizm, ritorik savol, ritorik murojaat, sukut, ellips, epifora. Badiiy matn kommunikativ vazifa bilan aloqadorlikda namoyon bo‘ladigan, matn qurilishida o‘ziga xos omil hisoblangan estetik vazifani bajaradi. Estetik vazifaning namoyon bo‘lish o‘rni matn, bunda ekspressivlik, badiiylik, poetiklik kabi tushunchalar birlamchi omil sanalib, estetik vazifa badiiy asar tili poetikasi, shoir yoki yozuvchining badiiy matni shakllantiruvchi leksik-grammatik, fonografik, morfologik vositalardan qay tartibda foydalanganligi, badiiy matnning sintaktik xususiyatlarini qay usulda berib o‘tganligida namoyon bo‘ladi.

Qahramon ruhiyatida kechayotgan kechinma, holatlar tasvirini yozuvda ifodalash murakkab jarayon, mazkur holatda ijodkor fonografik vositalar orqali ko‘zlagan maqsadini bayon etadi. Bu esa unli va undosh tovushlarni birdan ortiq yozish, tovushlar takrori natijasida yuzaga keladi. Badiiy asar tilida qo‘llanuvchi ma‘nodosh, shakldosh, zid ma‘noli, ko‘p ma‘noli, tarixiy va arxaik so‘zlarning har biri o‘ziga xos estetik vazifa bajarishi bilan xarakterlanadi. Badiiy matnga emotsional-ekspressivlik olib kiradi. Morfologik birliklarning estetik vazifasi maxsus so‘z formalari yordamida ekspressivlikni ifodalashda namoyon bo‘ladi. Ekspressivlik salbiy yoki ijobiy bo‘lishi mumkin. Bunda matnda qo‘llanayotgan har bir shakl nima uchun, kimning nutqida, qay maqsadda qo‘llanganligi, qanday ma‘no otkenkasini ifodalab kelayotganiga diqqat qaratish zarur. Badiiy nutqning ta‘sirchanligini boyitish, ma‘noni kuchaytirish, ifodaviyligini oshirishda badiiy asarda qo‘llangan so‘zlar semantikasidagi ma‘no nozikligini o‘quvchiga yetkazib berishda sintaktik usuldan foydalaniladi. Badiiy matnning sintaktik xususiyatlari sintaktik paralellizm, emotsional hamda ritorik so‘roq gaplar, inversiya, ellips, sukut, gradatsiya, antiteza, farqlash, o‘xshatish kabi hodisalarda namoyon bo‘ladi.

Tahlil va natijalar. Quyida sof so‘roq hamda ritorik so‘roq gaplarning she‘riy matnlarda (Behzod Fazliddin she‘rlari misolida) emotsional-ekspressivlikni qay yo‘sinda ifoda etishdagi stilistik ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

Sevmay qoldi, qalb qanday qotdi,



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Qachon armon yozoldi kurtak?

Osmonlarga dil shaydo...

Nahot baxtdan yo‘l ayro?!

Savol sonsiz, sitamlar serpusht

Sevmaysanmi, sevdirmaysanmi? (Behzod Fazliddin, 2017, 76-bet)

Qachon armon kurtak yozganligini sezmay qolgan, baxtdan yo‘llari ayro bo‘lganligini, sonsiz savollar, serpusht sitamlar ichida qolib, ma’shuqaning sevmaslighi va sevdirmasligini bila olmayotgan lirik qahramon holatini tasvirlashda shoir so‘roq ma’nosiga so‘roq-taajjub, so‘roq-hayrat semalarini yuklagan.

Yuzini yashirib yig‘lamoqda Yer,

Nega ishonmaydi odamlar?! (Behzod Fazliddin, 2017, 94-bet)

Nega holing parishon?

Nechun boshing egilgan?

O‘zing-ku, oydakkina

Nega bag‘ring qon, paxta?

Odamlarning loqaytligi, o‘zi oq, ammo bag‘ri qon paxtaga nisbatan lirik qahramon kayfiyati bevosita so‘roq-achinish semasini yuzaga keltirgan.

Yuragim och, o‘zi nelar yeyman men?

Nahotki nur tushmas zaxxok joyman men?

Ertaga Mezonga nima deyman men?

Bo‘sh qo‘llar tilimni qisib boradi.

Nega og‘ulardan hazar qilmayman

Bu qashshoq qo‘llarim nelar bilan band?

Kimlarning umrini takrorlab qo‘ydim

Kimlarning aybi deb boshim egilgan?

Manzildan adashgan lirik men xatolari uchun o‘zini ayblab, azoblanarkan, so‘roq-tashvish semasi birinchi planga chiqadi.

Nega bo‘g‘ilmaysiz, qiynalmaysiz hech

Bijg‘igan yolg‘onlar saltanatida?!



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Adolat qayerda adolat?

Ko'ngilni nazarga olmaysiz.

Nima qilsam, Oyni boshqa yig'latmaysiz

Nima qilsam, tinch qo'yasiz osmonlarni?

Mazkur parchalarda yolg'onlar saltanatida emin-erkin yurganlarni ko'rib, adolatni axtarayotgan shoir ko'ngilni nazarga olmasliklaridan noroziligini bildirarkan, sof so'roq gap orqali oyni yig'latmaslik, osmonlarni tinch qo'yish borasida odamzod bilan shartlashadi.

Soylar yuragimni yuvib o'tmadi

Nur tushsa, ketarmiz ko'ksimning dog'i?

Yashab qolay desam, bu mag'rur o'lka

Qabul qilarmikan fuqarolikka?

Har ikki misrada so'roq-gumon semalari mavjud.

Ritorik so'roq gaplar badiiy matnning emotsional-ekspressivligini ta'minlab beradi hamda nutq ta'sirchanligini oshiradi. Muallif bunday gap shakllaridan lirik menning, lirik qahramonning hayrati, g'azabi, kuchli ta'kidi, quvonchi, gumoni, sevinchi, tashvishi, norozilik, kesatiq, ishonchini ifodalash, badiiy matn tilini turli usullarda o'quvchiga yetkazib berish, she'riy matnda uslubiy bo'yoqdorlikni oshirish maqsadida foydalanadi. Ritorik so'roq gaplar ko'pincha monologik nutqlarda namoyon bo'ladi. Ohangdorlik, ifodalilik, ta'sirchanlik ham tinglovchidan javob talab qilinmaydigan ritorik so'roq gaplar orqali yuzaga chiqadi.

Zabonimni tilib ketdimi

O'zga bog'ning barg-ninalari?

Qobirg'asi singan xazonlar ohi,

Ohangdor hasratdek tuyulmas kimga? (Behzod Fazliddin, 2017, 23-bet)

Uzilib ketmasmi bo'ynim qarzlardan,

Shuncha gunoh bilan qanday yashayman?! (Behzod Fazliddin, 2017, 47-bet)

Bilmam bu olamda bir sohibi dil

Men kabi zormikan samimiyatga? (Behzod Fazliddin, 2017, 84-bet)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Bitib ulgurmadi men boshlagan she'r

Endi nima deyman yangi faslga?

She'riy parchalarning barchasida tasdiq mazmuni bilan birga tashvish, qo'rquv ottenkalari mavjud. Muallif mazkur emotsional ottenka orqali o'zini hamda o'quvchini umidsizlikka tushmaslikka, favqulotda sergaklikka undayapti.

Xudo bermagan Baxtni

Siz qay go'rdan topasiz?

Jannatiy hislardan entikar ruhim!..

Xayolimday xafif hurlar bormikan?!

Shoir Xudo bermagan baxtni hech qayerdan topib bo'lmasligini, ruhi jannatiy hislardan enikayotganini ta'kidlar ekan, "xayolimday xafif hurlar bormikan" (xayolimday xafif hurlar yo'q, demoqchi) tasdiq mazmunini taajjub ottenkasi bilan ifodalangan.

O'z tilingda siz ketganda lek,

Duduqlanib tursang... Bu ne hol? (Behzod Fazliddin,2017, 9-bet)

Qanday osar o'z so'zini to'xtatgan el?

Bolasini alla aytmay uxlatgan el? (Behzod Fazliddin, 2017, 14-bet)

Ko'klam, ko'klamliging nimaga arzir,

Ko'ngilga iliqlik olib kirmasang? (Behzod Fazliddin, 2017, 25-bet)

Qog'ozsiz ham kunim o'tardi

Yer yuzida qaysi shoir to'q?

El, ko'klamdan lirik qahramon rozi emas. Bir paytning o'zida norozilik va g'azab ottenkasi parallel qo'yilgan. Buni muallifning yer yuzida hech qaysi shoir to'q emasligi haqidagi kuchli tasdig'ida ham ko'rish mumkin.

Kim birovni yig'latib kular,

Shu o'yinlar menga qiziqmi?

Kunda uddasidan muddao nadir,

Qayoqqa borasan, shu isyon bilan? (Behzod Fazliddin, 2017, 95-bet)



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Birovni goh kuldirib, goh yig'latayotganlarning o'yini lirik qahramonga qiziq emasligi, turli jabhalarda iddao qilayotganlar o'z isyoni bilan hech qayerga bora olmasligi g'azab ottenkasi bilan ifodalangan. Shuningdek, tashvish, norozilik semalari ham mavjud.

Dunyo deganlari shumidi azal

Hanuz Haq deganning qalbi chok-chokmi?

Nega o'z-o'ziga tinmay zulm aylar,

Nega sof fitratin boy bermish Inson? (Behzod Fazliddin, 2017, 94-bet)

Ijodkor dunyoning qiymati pastligi, Haq deganning qalbi vayronligi, sof fitratini yo'qotgan odamzod qismatiga qayg'urarkan, tasdiq mazmuniga achinish ottenkasini parallel qo'yadi.

Avval – Sen, boshqasi suymaydi,

Robbim, bir otam, birgina onamdan bo'lak? (Behzod Fazliddin, 2017, 37-bet)

Nega toleyidan yo'llari ayri,

Onasiz ham borish mumkinmi Baxtga?! (Behzod Fazliddin, 2017, 40-bet)

Chin sevmuq – poklanmuq emasmi?

Men suyib poklanib boraman. (Behzod Fazliddin, 2017, 86-bet)

Shoir avvalo Yaratgan, so'ng ota va onasidek hech kim uni suya olmasligi, onasiz hech qachon., hech vaqt baxtga tomon borib bo'lmasligi, chin sevmuq – poklanmuq ekanligini ta'kid ottenkasi bilan tasdiqlagan.

Xulosa

Behzod Fazliddin she'rlarida sof so'roq gaplarning so'roq ma'nosidan tashqari so'roq-taajjub, so'roq-hayrat, so'roq-achinish, so'roq-tashvish, so'roq-norozilik, so'roq-gumon variantlari – semalari mavjud. Ijodkor ritorik so'roq gaplarning tashvish, qo'rquv, taajjub, norozilik, g'azab, achinish, ta'kid ottenkalaridan mohirona foydalangan. She'riy matnlarda ritorik so'roq gaplarning ekspressivlikni ta'minlashda, ta'sir kuchini oshirishda muhim stilistik ahamiyatga ega ekanligi, muallif ifodalomoqchi bo'lgan fikrning kimga yoki nimaga qaratilganligi, qanday maqsadda berilganligi, qay tarzda qo'llanganligini aniqlashdagi estetik hamda effektiv vazifalari aniqlandi. Ijodkor o'z so'zini stilistik vositalar orqali to'g'ri va



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th May - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

o‘rinli qo‘llaganligi, she’rda ifoda yo‘sini, ta’sir kuchini har jihatdan saqlab qola olganligi, sof so‘roq gaplar orqali emotsional ottenkalarni maqsadga muvofiq tarzda berib o‘tganligi tahlil etildi. So‘roq gaplarning umumlashtiruvchi so‘roq ma’nosi bilan yonma-yon keladigan mazmuniy paradigma, ya’ni turli variant – semalari she’riy matn tahlili asosida ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mahmudov N, Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy gimnastikasi (sintaksis). Toshkent – 1995.
2. Eshmirzayeva G (2022). She’riyatda lingvopoetik vositalarning qo‘llanishi.
3. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva G, Qurbonova M, Yunusova Z, Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent – 2009.
4. Behzod Fazliddin. Tushlaringdan chiqib keldim. Toshkent – 2017.

